

**IS'HOQXON IBRAT NOMIDAGI NAMANGAN DAVLAT CHET TILLARI
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/05.05.2023.Fil. 163.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

ATAMIRZAYEVA E'ZOZA BEKMIRZAYEVNA

**TALABALARGA FRANSUZ TILINI INTEGRATIV YONDASHUV
ASOSIDA O'RGATISH TEXNOLOGIYASI**

13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (fransuz tili)

**PEDAGOGIKA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD)
ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya
AVTOREFERATI**

Namangan – 2025

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Contents of dissertation abstract of philosophy doctor (PhD)
on pedagogical sciences**

**Оглавление автореферата диссертации доктор философии (PhD)
по педагогическим наукам**

Atamirzayeva E‘zoza Bekmirzayevna

Talabalarga fransuz tilini integrativ yondashuv asosida o‘rgatish
texnologiyasi.....3

Atamirzayeva Ezoza Bekmirzayevna

Technology of teaching French to students based on an integrative approach...26

Атамирзаева Эъзоза Бекмирзаевна

Технология обучения студентов французскому языку на основе
интегративного подхода.....49

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works53

**IS'HOQXON IBRAT NOMIDAGI NAMANGAN DAVLAT CHET TILLARI
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**

**PhD.03/05.05.2023.Fil. 163.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

ATAMIRZAYEVA E'ZOZA BEKMIRZAYEVNA

**TALABALARGA FRANSUZ TILINI INTEGRATIV YONDASHUV
ASOSIDA O'RGATISH TEXNOLOGIYASI**

13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (fransuz tili)

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertasiya
AVTOREFERATI**

Namangan-2025

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3.PhD/Ped2840 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Namangan davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus, (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.namsifl.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portali (www.ziyonet.uz) manzillarida joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Yakubbayev Murodilla Marufovich

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Asqarova O'g'ilxon Mamashakirovna

Pedagogika fanlari doktori, professor

Ishanjanova Munosibxon Saidaxmadovna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Farg'ona davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Namangan davlat chet tillari instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/05.05.2023.Fil. 163.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil "_____" kuni soat _____dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: Namangan viloyati, To'raqo'rg'on tumani, "Yangiobod" MFY, Saodat ko'chasi, 28. Tel.: +998 (69) 442-11-67, e-mail: info@namsifl.uz / namchi-1@exat.uz).

Dissertatsiya bilan Namangan davlat chet tillari instituti Axborot resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: Namangan viloyati, To'raqo'rg'on tumani, "Yangiobod" MFY, Saodat ko'chasi, 28-uy. Tel.: +998 (69) 442-11-67, e-mail: info@namsifl.uz / namchi-1@exat.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2025- yil "_____" kuni tarqatildi.
(2025- yil "_____" _____dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

Dosbayeva Nargiza Turg'unpo'latovna

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, filol.f.d., (DSc) prof.

Umrzoqov Islom Isroilovich

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, filol.f.d., (PhD) dots.

Misirov Sohibjon Abdupattayevich

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy Kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, ped.f.n., dots.

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi annotasiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Zamonaviy dunyoda jamiyatning har tomonlama rivojlanishi ta'lim mazmuni va sifati bilan bog'liq ekanligi o'z isbotini topmoqda. Butun dunyoda yuz berayotgan globallashuv jarayonlarining ta'lim sohasiga ham jadal sur'atlarda kirib kelishi, axborot oqimining ko'pligi, zamonaviy innovatsion texnologiyalarning rivojlanishi ta'lim mazmunida ham shunga mos o'zgarishlar bo'lishini taqozo qilmoqda. Ta'limning bugungi kundagi vazifasi sohaga qo'yilgan davlat siyosatini amalga oshirish, kadrlar tayyorlash bo'yicha davlat talablarini sifatli bajarish, o'quv adabiyotlarining zamonaviy avlodini yaratish, o'qituvchi-murabbiylarning metodikasini uzluksiz takomillashtirish kabi pedagogikaning metodologik ahamiyatga ega muammolari bilan bevosita bog'liqdir. Jahonda globallashuv natijasida yuzaga kelgan axborot-ma'lumotlardan o'z sohasi doirasida keng miqyosda foydalanish ehtiyoji chet tillarda kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishga bo'lgan ehtiyojni yanada kuchaytirdi.

Dunyoda tillar ta'limshunosligi (lingvodidaktika) sohasida nutqiy muloqot kompetentligini rivojlantirishda integrativ yondashuv, integrativ o'quv dasturlari va darsliklardan foydalanish tadqiqiga doir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Rivojlangan davlatlarning oliy o'quv yurtlarida, jumladan, Kvebek (Université du Québec, Canada), Sorbonna (Université de Sorbonne), Oksford (Université D'Oxford), Kembrij (Université de Cambrige), Toronto (Université de Toronto), Qozon federativ universiteti (Université fédérative de Kazan) hamda Rossiya xalqlar do'stligi universitetlarida (Université de l'Amitié des Peuples de Russie) soha mutaxassislarining xorijiy tillarda erkin muloqot yurita olishi, bo'lajak chet til mutaxassislarining nutqiy muloqotning tarkibiy qismlari hisoblangan – tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozuv malakalarini rivojlantirish masalalari bo'yicha ilmiy-tadqiqotlar olib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

Respublikamizning dunyo hamjamiyatiga integratsiyalashuvi chet tillarni mukammal va puxta egallagan yetuk mutaxassis kadrlarni tayyorlashni eng muhim vazifalardan biriga aylantirdi. “Mamlakatimizda bir necha xorijiy tillarni biluvchi zamonaviy kadrlar tayyorlash, xorijiy tillar bo'yicha ilmiy ishlar olib borish, til o'rgatish metodologiyasini takomillashtirish”¹ kabi muhim vazifalar belgilangan. Bunda chet tilni kommunikativ faoliyat ko'rsatish, shaxsga yo'naltirilgan kompetensiyani egallashga mo'ljallangan integrativ yondashuv asosida o'qitish metodikasini takomillashtirish, xorijiy tajribalarni o'rganish va chet tillarni puxta o'zlashtirgan turli soha mutaxassislarini tayyorlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur tadqiqot 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori, 2017-yil 11-avgustdagi VMQ-610-son “Ta'lim muassasalarida chet tillarini o'qitishning sifatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori, 2018-yil 5-iyundagi

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning 2018-yil 5-martdagi Namangan viloyati To'raqo'rg'on tumani Is'hoqxon Ibrat nomidagi maktab-internatiga tashrifidagi nutqi. Elektron resurs:<http://www.uza.uz/oz/...prezidentimiz-is-o-khon-t-ra-ibrat-mazhm>. Murojaat sanasi: 26.11.2018 y.

PQ-3775-son “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi qarori, 2020-yil 16-noyabrdagi PF-6108-sonli “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi Farmonlari, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to’g’risida” qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to’g’risidagi” farmoni hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy xujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirish, innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish hamda ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Respublikamizda chet tillarni o‘qitish metodikasiga oid muammolar J.Jalolov, T.Sattorov, L.Ahmedova, S.Saydaliyev kabi yetuk olimlarning ishlarida yoritilgan². Fransuz tilida o‘quvchi-talabalarning nutqiy muloqot kompetensiyasini didaktik o‘yinlar vositasida shakllantirish va pedagogik texnologiyalardan foydalanish masalalari bilan H.Tursunov va F.Axrorovalar shug‘ullanganlar³. Fanlar va tillarni o‘qitishda fanlararo aloqadorlik muammolari, chet tillarni o‘qitishda integratsiyalashgan ta’limni joriy etish, ta’lim samaradorligini oshirishda integrasion texnologiyalardan foydalanish, chet tillarni o‘qitishda integrativ yondashuv masalalari M.Gulyamova, X.Yulbarsova, F.Erqulova, N.Abdullayeva, R.Mavlonova va N.Qushiyeva kabi olimlarning ilmiy ishlarida o‘rganilgan⁴.

²Jalolov J. Chet til o‘qitish metodikasi. Chet tillar oliy o‘quv yurtlari (fakultetlari) talabalari uchun darslik qayta ishlangan va to‘ldirilgan 2-nashri. – Toshkent, 2012, -432b.; Sattorov T. Bo‘lajak chet tili o‘qituvchisining uslubiy omilkorligini shakllantirish texnologiyasi (ingliz tili materialida). TDYUI Toshkent., 2003.–191b.; Axmedova L. Роль и место педагогических технологий в профессиональной подготовке студентов. –Т.: Fan va texnologiya.-2009.; Saidaliyev S. Chet til o‘qitish metodikasi ocherklar. –Namangan., 2004. – 238 b.

³Tursunov H. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari kommunikativ kompetensiyalarini didaktik o‘yinlar vositasida shakllantirish (fransuz tilini o‘rgatish misolida). Ped.fan.bo‘yicha fals.dok. (PhD) diss.–Namangan, 2022.-167 b.; Axrorova F. Nofilologik oliy o‘quv yurtlari talabalariga chet tillarini o‘qitishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish metodikasi. Ped. fan. bo‘yicha fals. dok. (PhD) diss. –Toshkent, 2020.-167 b.

⁴Gulyamova M. Ingliz tili o‘qitishda talabalarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga integrativ yondashuv. Pedagogika fan. nomzodlik dissertatsiyasi avtoreferati. –Toshkent., 2019. – 45 b.; Yulbarsova X. Integrativ yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning kommunikativ kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. Ped. fan. bo‘yicha fals.dok. (PhD)... diss. –Namangan, 2020.-167b.; Erqulova F. 9-11-sinf o‘quvchilarining ingliz tilida grammatik kompetensiyasini integrativ yondashuv asosida rivojlantirish texnologiyasi. Ped.fan. bo‘yicha fals.dok. (PhD) diss.–Namangan, 2022.-170 b.; Mavlonova R.A., Raxmonqulova N. H., Boshlang‘ich ta’limning integrasion pedagogikasi. – T.: TDPU. O‘quv qo‘llanma. 2006.–98 B.; Kushiyeva N. H. Talabalarga ingliz tilini o‘qitishda klasterli yondashuv xususiyatlari: Dis.ped.fan.falsafa dok.–Toshkent, 2020. – B.123.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligida (MDH) chet tillarni o'qitishda nutqiy muloqot kompetensiyani rivojlantirish masalalari, o'quv fanlarini integratsiyalashtirib o'qitish muammosining turli jihatlarini I.Bim, Yu.Biryukova, A.Danilyuk, G.Fedores, N.Galskova, I.Gez, A.Gvozdeva, Yu.Kustov, O.Larionova, V.Levchenko, R.Milrud, Ye.Passov, A.Shepilova, N.Vyunova, I.Zimnyaya, Yu.Zagrayskaya, Ye.Zvaginsevalar tomonidan tadqiq etilgan⁵.

Xorijiy mamlakatlarda chet tillarni o'qitish, nutqiy muloqot kompetensiyani rivojlantirish, turli fanlarni integratsiyalashtirib o'qitish muammolari, chet tillarni o'rganish jarayonida nutqiy muloqot yuritish ko'nikmalarini rivojlantirish masalalari S.Moran, N.Chomsky, M.Canale, M.Swain, L.Xays, B.Vayt, I.Luka, K.Knep, X.Braun, C.Shivanchi, D.Koyl, A.Valeo, M.Bastias, T.Sinx, N.Moxamar, M.Ivens, E.Berard, D.Hayms, J. Holms, J.Prayd, J.Kuk va E.Syussilar tomonidan o'rganilgan⁶.

⁵Бим И. Некоторые актуальные проблемы современного обучения иностранным языкам//Иностранные языки в школе. Москва:–2001.; Бирюкова Ю. Интегративная модель обучения чтению как компоненту профессиональной деятельности переводчика: Дисс. ... канд. пед. Наук.–Москва. 2015. – 243 с.; Данилюк А. Теория интеграции образования. – Ростов-на/Д.2000. – С. 202; Кренева И.В. Интегрированный курс как средство развития младших школьников в условиях углубленного изучения ими немецкого языка: Автореф.дис. ... канд. пед. наук. –Петрозаводск. 2003. – 22 с.; Федорец Г.Ф. Проблема интеграции в теории и практике обучения (предпосылки, опыт)/Г.Ф.Федорец.–Л.:ЛГПИ, 1989. –94с.; Гальскова Н.Д. Теоретические основы образовательной политики в области подготовки учащихся по иностранному языку: Дис... док. пед. наук. – М., 1999. – 477 с.; Гальскова Н.Д., Гез Н.И. Теория обучения иностранным языкам Лингводидактика и методика. Учебное пособие для студентов вузов. Москва, 2006.-335 стр.; Гвоздева А.В. Интегративно – дифференцированный подход к развитию субъектности студентов вуза в процессе обучения французскому языку: Автореф.дис... док.пед.наук.–Курск.2009.- С.53.; Кустов Ю. Интеграция в педагогике и образовании:Сб.науч.-метод. работ/Самара: Самар. индустриал. пед. колледж, 1994.– С.6-17.; Ларионова О.Г. Личностный и компетентностный подходы в образовании: проблемы интеграции. М., 2011.; Левченко В.В. Интегрированный подход к профессионально –педагогической подготовке в ВУЗЕ специалистов для образовательных учреждений. Автореф.дис. ... док. пед. наук.- Самара. 2009.-43 с.; Мильруд Р. П. Компетентность в изучении языка/Иностранные языки в школе,–2004. -№ 7.– С- 36.; Пассов Е.И.Основы коммуникативной методики обучения иностранным языкам. - Москва: –1999,стр-45-52. Щепилова А.В. Теория и методика обучения французскому языку как второму иностранному: учебное пособие для студентов вузов. М.: ВЛАДОС, 2005. -242 стр; Вьюнова Н.И. Теоретические основы интеграции и дифференциации психолого-педагогического образования студентов университета: Автореф. дис. ... док. психол. наук/ Н.И.Вьюнова. –М.,1999.– 41 с.; Зимняя И. А. Лингвопсихология речевой деятельности: Избр. психол. труды/ – М: –2001. 432.с С. 218. Заграйская Ю.С. Методика интегрированного обучения английскому языку и зарубежной литературе на занятиях по домашнему чтению: Дисс.... канд. пед. наук.– Иркутск. 2009.– 167с.; Звягинцева Е.П. Совершенствование иноязычной подготовки студентов на основе интегративно –развивающего подхода: Дисс. ...канд. пед. наук.–Москва. 2014.-218 с.;

⁶Moirand S. Enseigner à communiquer en langue étrangère, –Paris, –1982. Hâchette. P-276; Chomsky N. Language and Mind/N.Chomsky. –N-Y:Harcourt; Brace, Jovanovich, 1972 Canale M., M/Swain//theoretical bases of communicative approach second language teaching and testing / Canale M, Swain.M // Applied Linguistics. – 1980. - № 1. –P. 1-47.; Xias L. Communicative Competence and Critical thinking: a cross cultural view of Chinese EFL learners and teachers in a University Context. – Ireland. Dublin City University. 2004. - 297 p.; Waite B.R The Role of Communicative Competence and Culture in Current Foreign Language Teaching. Doctor of philosophy. – University of Colarado. 2006.-384p.; Luka I. Developing Communicative Competence in Teaching English for Students of the Tourism Industry. Latvia University –Riga: Latvia Volume 700. 2006.- 228 p.; Knapp K., Antos G. Handbook of Communication Competence. –New York. 2008. -538p.; Brown H.D. Teaching by Principles: An interactive Approach to Language Pedagogy. (3rd Edition) – Pearson Education ESL. 2007. – 410 p.; Shivanchi C.Sh. Framework for ICT integration in teaching and learning in public technical training institutes in Kenya. - Kenya. University of Nairobi. 2008. –71 p.; Coyle D. Hood P. Content and Language Integrated Learning. – Cambridge University Press. 2010. –170 p.; Valeo A. The Integration of Language and Content: form–focused instruction in a content – based language program. -University of Toronto. 2010. –145 p.; Bastias M and others. Integration of the four skills of the English language and its influence of the performance of second grade High

Fransuz tilini chet til sifatida o'qitish (FLE-Français langue étrangère) yuzasidan bir qator tadqiqotlar olib borilgan bo'lsada, talabalarga fransuz tilini ikkinchi chet til sifatida o'qitishda nutqiy muloqot kompetensiyani integrativ yondashuv asosida shakllantirish borasida monografik tadqiqotlar kam ekanligi muhokama qilinayotgan tadqiqot ishining dolzarb ekanligini belgilab beradi. Oliy ta'lim muassasalarida chet tillarni integratsiyalashtirib o'qitish, xususan, bo'lajak ingliz tili mutaxassislarining ikkinchi chet til - fransuz tilidagi nutq faoliyatlarini integratsiyalash orqali ularning nutqiy muloqot kompetensiyasini rivojlantirish masalasi maxsus o'rganilmagan.

Dissertasiya tadqiqotining dissertasiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertasiya Namangan davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining "O'zbek adabiyotining xorijda o'rganilishi va chet tillar o'qitishning dolzarb muammolari" bandi doirasida bajarildi.

Tadqiqotning maqsadi ingliz tili yo'nalishi talabalarining fransuz tilida kommunikativ kompetensiyasini integrativ yondashuv asosida rivojlantirish texnologiyasini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

talabalarining fransuz tilida nutqiy muloqot kompetensiyasini rivojlantirish tamoyillarini aniqlashtirish;

talabalarining fransuz tilida nutqiy muloqot kompetensiyasini rivojlantirishning lingvometodik jihatlarini takomillashtirish;

ingliz tili yo'nalishidagi talabalarda fransuz tilida nutqiy muloqot kompetensiyasini tarkibiy qismi hisoblangan nutq faoliyatining tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozuv turlarini integratsiyalashtirib o'qitishga yo'naltirilgan mashq va topshiriqlar tizimini ishlab chiqish;

talabalarining fransuz tilida nutqiy muloqot kompetensiyasini rivojlantirishda yuzaga keladigan qiyinchiliklarni bartaraf etish yo'llarini ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida talabalarining nutqiy muloqot kompetensiyasini integrativ yondashuv asosida rivojlantirish bilan bog'liq fransuz tili o'qitish jarayoni belgilanib, tajriba-sinov ishlarida Namangan davlat universiteti, Andijon davlat chet tillar instituti va O'zbekiston Milliy universiteti ingliz tili yo'nalishidagi talabalar ishtirok etdilar.

School Students.-Chile. 2011. -152p.; Singh T.K. Teacher readiness of ICT integration in Teaching –Learning: A Malaysian case study.2014. –885p.; Mokhamar N.W. The impact of integrating Reading and Writing Skills on Palestine Technical College Students Paragraph Writing and Attitudes. -Gaza. 2016. - 176 p.; Evans M.B. The Integration of Reading, Writing, Speaking and Listening Skills in the Middle School Social studies Classroom. – Utah State University.2018.-173p.; Bérard, E. 1991. L'approche communicative, Théories et pratiques.–Paris, CLE International. -103p.; Hymes D. 1991. Vers la compétence de communication, Paris, coll., Hâtier/Didier(traduction française de On communicative compétence dans J. Holmes and J.-B. Pride (dir.), Sociolinguistics, Penguin Books, 1972),; Cuq, J.-P.. Du discours du linguiste au discours pédagogique: Tribulations de quelques concepts grammaticaux. Etudes de Linguistique Appliquée n°125, sous la dir. De M. Verde-Lhan-Bourgade, –2002.pp.83-95; E. Soucy.- Vers une définition de l'approche intégrée- Université du Québec en Abitibi-Témiscamingue (Canada) été december 2022 Quebec. 15 p

Tadqiqotning predmeti oliy ta'lim muassasalari ingliz tili yo'nalishi talabalarining fransuz tilida nutq faoliyati turlarini integratsiyalashtirib o'qitish mazmuni, shakli, usuli va vositalari.

Tadqiqotning usullari: Tadqiqotda nazariy (qiyosiy, tahliliy), diagnostik (kuzatish, suhbat, so'rovnoma), pedagogik tajriba-sinov, matematik-statistik tahlil, umumlashtirish usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

talabalarining fransuz tilida nutqiy muloqot kompetensiyasini rivojlantirish jarayonida tinglab tushunish, gapirish nutq faoliyatida "omofon" (bir xil tovushli so'zlar) bo'yicha farqli va o'qish, yozuv nutq faoliyatida "omograf" (bir xil yozuvli so'zlar) bo'yicha esa o'xshash xususiyatlari aniqlashtirilgan;

fransuz tilini o'qitishda integratsiyalashtirish yondashuv va innovatsion o'qitish metodlari asosida talabalar nutqiy muloqot kompetensiyasini (tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozuv) integratsiyalashtirishning didaktik ta'minoti ishlab chiqilgan;

ingliz tili yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalarida fransuz tilida nutqiy muloqot kompetensiyaning tarkibiy qismlari bo'lgan nutq faoliyatining tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozuv turlarini integratsiyalashtirib o'qitishga yo'naltirilgan retseptiv, reproduktiv, produktiv, situativ kommunikativ, ijodiy va integrativ mashq va topshiriqlar tizimi ishlab chiqilgan;

talabalarining fransuz tilida nutqiy muloqotni rivojlantirish jarayonida uchraydigan qiyinchiliklar klassifikatsiyasi ishlab chiqilib, ular lingvistik, ekstralingvistik, psixologik va metodik omillar asosida guruhlashtirildi, qiyinchiliklarni oldini olish va bartaraf etishda tilning funksional-amaliy qo'llanilishiga qaratilgan metodlar va innovatsion texnologiyalaridan foydalanish samaradorligi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari:

ingliz tili yo'nalishida mutaxassis tayyorlaydigan OTMlarda talabalarga fransuz tilini ikkinchi chet til sifatida o'qitishda nutqiy muloqot kompetensiyasini rivojlantirishning amaldagi metodikasi takomillashtirilgan;

ingliz tili yo'nalishida mutaxassis tayyorlaydigan OTMlar talabalarining nutq faoliyati turlarini integratsiyalashtirib o'qitishga oid mashqlar bilan boyitilgan, fransuz tilidagi nutqiy muloqot kompetensiyani rivojlantirishga qaratilgan "Ikkinchi chet til (fransuz tili)" o'quv qo'llanmasi yaratilgan;

ingliz tili yo'nalishida mutaxassis tayyorlaydigan OTMlarda fransuz tilida nutq faoliyatining tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozuv turlarini integratsiyalashtirib o'qitish bo'yicha innovatsion usullarning metodik ta'minoti yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muammoni metodologik, metodik, psixologik va pedagogik yondashuvlar hamda fransuz tilida nutqiy muloqot kompetensiyani integrativ yondashuv asosida rivojlantirishga doir milliy tajriba, respublikamiz va chet ellik olimlar, shuningdek, talabalarining fransuz tilida nutqiy muloqot kompetensiyani rivojlantirishga doir o'quv faoliyatini tashkil etishga oid tavsiyalar ishlab chiqilganligi; tahlillarning miqdor hamda sifat jihatidan

ta'minlanganligi, tajriba-sinov ishlarining haqqoniyligi, olingan natijalarning matematik-statistik tahlil metodlari yordamida qayta ishlanganligi, qo'llanilgan yondashuvlarning ilmiy-metodik jihatdan asoslanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining **ilmiy ahamiyati** tillar ta'limida "integratsiya, integrativ o'qitish, integrativ ta'lim va integrativ yondashuv" tushunchalarining mazmun-mohiyati, kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda integrativ yondashuvning o'ziga xos xususiyatlari hamda ingliz tili yo'nalishidagi OTMLlarda fransuz tilida nutq faoliyati turlarini integratsiyalashtirib o'qitish xususiyatlari, fransuz tilida nutqiy muloqot (lingvistik va nutqiy) kompetensiyani rivojlantirishdagi o'rni va ahamiyatining o'ziga xos pedagogik hamda metodik xususiyatlarini belgilab berilganligi, muammoning o'rganishga doir yondashuvlarning tahlil etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning **amaliy ahamiyati** talabalarda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga mo'ljallangan mashq va topshiriqlarga asoslangan o'quv qo'llanmani amaliyotga joriy etilganligi, fransuz tilida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish texnologiyasi o'qitish metodikasi sohasida ushbu fanning yanada takomillashuviga xizmat qilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Talabalarga fransuz tilini integrativ yondashuv asosida o'rgatish texnologiyasiga doir erishilgan ilmiy natijalar asosida:

talabalarining fransuz tilida kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish jarayonida tinglab tushunish, gapirish nutq faoliyatida "omofon" (bir xil tovushli so'zlar) bo'yicha farqli va o'qish, yozuv nutq faoliyatida "omograf" (bir xil yozuvli so'zlar) bo'yicha esa o'xshash xususiyatlarini aniqlashga doir ilmiy-nazariy asoslangan takliflaridan KA 107/2022-2023 raqamli Erasmus+ mobility program loyihasi doirasida foydalanilgan (Namangan davlat chet tillari institutining 2024-yil 12-dekabrda 1732-03-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu takliflarning joriy qilinishi talabalarining fransuz tilida kommunikativ kompetensiyasining takomillashuviga xizmat qilgan;

fransuz tilini o'qitishda integratsiyalashtirilgan yondashuv va innovatsion o'qitish metodlari asosida talabalar nutqiy muloqot kompetensiyasini (tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozuv) integratsiyalashtirishning didaktik ta'minotidan Oliy ta'lim muassasalari talabalarini uchun "Ikkinchi chet til (fransuz tili)" nomli o'quv qo'llanma tayyorlashda foydalanilgan. (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 1-avgustdagi 277-sonli buyrug'i). Natijada, o'quv qo'llanmada berilgan mashqlar nutq faoliyati turlarini integratsiyalashtirib o'qitish asosida talabalar nutqiy muloqot kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qilgan;

ingliz tili yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalarida fransuz tilida nutqiy muloqot kompetensiyasining tarkibiy qismlari bo'lgan nutq faoliyatining tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozuv turlarini integratsiyalashtirib o'qitishga yo'naltirilgan retseptiv, reproduktiv, produktiv, situativ-kommunikativ, ijodiy va integrativ mashq va topshiriqlar tizimidan foydalanish samaradorligiga doir

takliflaridan Namangan davlat universiteti ingliz tili yoʻnalishi talabari uchun ikkinchi chet til (fransuz tili) fanidan oʻquv dasturi ishlab chiqish jarayonida foydalanilgan. (Namangan davlat universitetining 2024-yil 12-dekabrda 794-03-sonli maʼlumotnomasi). Mazkur takliflar, ikkinchi chet til (fransuz tili) fani oʻquv dastur mavzularini takomillashtirishga xizmat qilgan;

talabalarining fransuz tilida nutqiy muloqotni rivojlantirish jarayonida uchraydigan qiyinchiliklar klassifikatsiyasi, ulardagi lingvistik, ekstralingvistik, psixologik va metodik guruhlashuvi, qiyinchiliklarni oldini olish va bartaraf etishda tilning funksional-amaliy qoʻllanilishiga qaratilgan metodlar va innovatsion texnologiyalaridan foydalanish samaradorligi taʼminotidan Oʻzbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “Oʻzbekiston teleradiokanali” DM muharririyati tomonidan tayyorlangan “Jahon adabiyoti”, “Taʼlim va taraqqiyot”, “Oʻzbekiston yoshlari” radioeshittirishlar ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan. (Oʻzbekiston Milliy teleradiokompaniyasi Oʻzbekiston teleradiokanali davlat muassasasining 2023-yil 20-dekabrda 04-36-1937-son maʼlumotnomasi). Mazkur takliflarning joriy qilinishi talabalarining fransuz tilida kommunikativ kompetensiyasining takomillashuviga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Tadqiqot natijalari 7 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanida muhokamadan oʻtkazilgan.

Tadqiqot natijalarining eʼlon qilinganligi. Dissertasiya mavzusi boʻyicha jami 20 ta ilmiy-uslubiy ishlar, shu jumladan, 1 ta oʻquv qoʻllanma, 1 ta oʻquv-metodik qoʻllanma Oʻzbekiston Respublikasi Oliy attestasiya komissiyasining doktorlik dissertasiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta, 4 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertasiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertasiya kirish, uch bob, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati hamda ilova qismlaridan iborat boʻlib, 132 sahifani tashkil qiladi.

DISSERTASIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yoʻnalishlariga mosligi koʻrsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, nashr qilingan ishlar va dissertasiyaning tuzilishi boʻyicha maʼlumotlar keltirilgan.

Dissertasiyaning **“Ingliz tili yoʻnalishi talabalariga fransuz tilini chet til sifatida oʻqitishning ilmiy-nazariy masalalari”** nomli birinchi bobida fransuz tilini ikkinchi chet til sifatida oʻqitishdan koʻzda tutilgan maqsad va vazifalar, chet til oʻqitish metodikasida ikkinchi chet tilni oʻrgatishga boʻlgan metodik yondashuvlar, ingliz tili yoʻnalishi talabalariga ikkinchi chet til – fransuz tilini oʻrgatish mazmuni va mohiyati, talabalarining fransuz tilida nutqiy muloqot kompetensiyasini rivojlantirishning ilmiy-nazariy muammolari oʻrganilgan.

Mazkur bobda integrativ yondashuv, uning ta'lim jarayonidagi o'rni, "integratsiya", "integrativ yondashuv", "integratsiyalashgan ta'lim" tushunchalarining mazmun mohiyati o'rganib chiqildi hamda mualliflik yondashuvi asosida ta'riflandi. Til o'rganish kishilik jamiyatida bag'oyat muhim sohalardan biri hisoblanadi. Aloqa vositasi bo'lmish tilni tabiiy muhitda - oilada, bog'chada, maktabda, oliy o'quv yurtlarida uyushgan holda darsda amaliy egallash mumkin. Til hodisalariga oid bilimlar esa nazariy jihatdan o'rganiladi. Xalqaro munosabatlar avj olgan hozirgi zamonda bir necha tillarni bilish, ko'p tillilik - poliglossiya ulkan ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekiston Respublikasi hududida tahsil oladigan o'quvchi va talabalar, odatda, uch tilni o'rganadilar. Tillar ta'limshunosligida (lingvodidaktikada) uch til quyidagi maqomda yuritiladi: ona tili (o'zbek tili/rus tili), ikkinchi til (rus tili/o'zbek tili), chet til (g'arb va sharq tillari). Filologik oliy o'quv yurtlarida birinchi chet til bilan birga qo'shimcha mutaxassislik sifatida ikkinchi chet til o'rgatiladi.

Ona tili, ya'ni o'zbek tili tafakkur shakllanishida alohida xizmat o'taydigan birinchi tildir. Psixologlar e'tirofiga binoan "tafakkur - verbal, ya'ni fikrlash so'z bilan chambarchas bog'liq, so'z - tushuncha ifodalovchisidir. Ona tili so'zlari zaminida o'zlashtirilgan tushunchalar ikkinchi yoki chet tilni o'rganish chog'ida o'zga til so'zlarining tovush (fonetik) va yozuvdagi (grafik) timsolida gavdalanadi. Ona tili, ikkinchi til va chet tilda o'rganiladigan so'z miqdoran uchta, biroq ular ifodasida shakllanuvchi tushuncha esa yagona bo'ladi. Masalan: suv – вода – eau so'zlari. Xullas, tushuncha tilshunoslar ta'biri bilan aytganda, umuminsoniy, baynalmilal hodisadir, so'zning fonetik va grafik timsoli esa milliydir. O'z tilida shakllangan tushunchalarni talaba endi o'rganilayotgan o'zga til so'zlari bilan fikran bog'laydi.

Ikkinchi til haqida so'z yuritilganda, unga boshqa millat vakillaridan iborat qardosh va qo'shnilar tili sifatida qaraladi. Ma'lumki, til kishilarning bir-birlarini yaqindan bilishlari, hurmat-e'zozlashlari, do'stlashishlarida tengi yo'q omil, bebaho vositadir. Maktab va oliy o'quv yurtlarida ikkinchi til tushunchasi o'zbekcha o'qiydiganlar uchun rus tili, ruscha ta'lim oluvchilar uchun o'zbek tilidir.

Chet til - bu xorijiy mamlakat tili. Respublikamizda G'arbiy Yevropa tillaridan - ingliz, ispan, nemis, fransuz va sharq tillaridan - arab, turk, urdu, fors, xitoy, hind va koreys tillari o'qitilmoqda.

Yuqoridagi uchala tilni o'qitish jarayoni turlicha kechadi: birinchidan, o'zbek tilida tafakkur shakllanadi, o'zga tillarni o'rganish ulardagi fonetika, leksika va grammatikaga xos xususiyatlarni his etish bilan bog'liqdir; ikkinchidan, o'rganish tartibi o'zbek tilidan boshlanib, undan keyin ikkinchi til va nihoyat, chet tilga o'tiladi, uchinchidan, o'zbek tili va ikkinchi tilda nutqni egallash tabiiy vaziyatda, chet tilni o'rganish esa sun'iy muhitda o'tadi. Chet tildagi muloqot asosan darsda o'qituvchi rahbarligida kechadi. Uchala til orasida chet tilni o'rgatish/o'rganish muayyan jihatlari bilan keskin farqlanib turadi. Bu esa, o'z navbatida, tegishli chet til o'qitish uslubiyotini qo'llashni taqozo etadi.

Chet tildan mutaxassislik beradigan oliy o'quv yurtlarida birinchi chet tilga qo'shimcha tarzda ikkinchi chet til ham o'qitiladi. Mazkur oliy o'quv yurtlarida ikkinchi chet til majburiy o'quv predmeti maqomida o'rgatiladi. Chet til o'quv yurtlari fakultetida, roman-german va sharq tillari fakultetlarida chet til mutaxassislari yetishib chiqadi. Mazkur fakultetlarda ikkinchi chet til o'rgatiladi, qo'shimcha mutaxassislik beriladi.

Ikkinchi chet tilni o'qitish jarayoni til bilish darajasini oshirish, madaniyatlararo kommunikatsiya qobiliyatlarini shakllantirish va shaxsiy rivojlanishga hissa qo'shadigan jarayondir. Chet tilidan mutaxassis tayyorlaydigan universitet va institut o'quv rejalarida ona tili, chet til fanlaridan tashqari ikkinchi xorijiy til o'qitish rejalashtirilgan. Oliy ta'lim muassasalarida hozirgi kunda 10 dan ortiq chet tillar hamda ikkinchi chet tillar sifatida ingliz, nemis, fransuz, ispan, italyan, fors, koreys, xitoy, yapon tillari o'qitilmoqda. Bugungi kunda ikkinchi chet tilni o'qitishning zaruriyati:

1. Xalqaro aloqalarning rivojlanishi va turli sohalarda qo'llanayotgan xorijiy tajribalar;

2. Shaxsiy rivojlanish – Dunyoqarashni kengaytirish, yangi madaniyatlar va tafakkur tarzi bilan tanishish;

3. Ta'lim va ilmiy faoliyat – Xorijiy adabiyotlardan foydalanish, xalqaro ilmiy izlanishlarda ishtirok etish va malaka oshirish;

4. Kasbiy va ish faoliyati – Xalqaro bozor va korporatsiyalarda ish yuritish, tarjimonlik, xorijiy hamkorlar bilan muloqot qilish;

5. Sayohat va muloqot – Dunyo bo'ylab erkin sayohat qilish, turli mamlakatlarda odamlar bilan muomala qilish;

6. Axborot va texnologiyalar – Zamonaviy texnologiyalar, ilmiy va ommaviy axborot vositalaridan keng foydalanish, internetdagi xorijiy manbalardan bema'lol foydalanish kabi maqsadlar bilan belgilanadi.

Oliy ta'lim muassasalarida ikkinchi xorijiy tilni (ingliz, nemis, fransuz tili) o'rganish/o'rgatish o'z xususiyatiga ega bo'lib, maxsus o'qitish metodikasini qo'llashni taqozo etadi. O'qitish metodikasi yaxlit tizim bo'lib, ta'lim sharoiti, maqsadi, mazmuni, texnikasi, usuli, metodi va metodikasi hamda vositasi kabi tarkibiy qismlardan iboratdir.

Tadqiqotimizda fransuz tilini ikkinchi chet til sifatida integrativ yondashuv asosida o'qitish muammolari o'rganilganligi sababli dissertasiyada tillar o'rtasidagi o'zaro bog'lanishga, integrativ yondashuv masalalariga to'xtalib o'tishga ehtiyoj tug'iladi. XVIII asrda "integratsiya" tushunchasi ilk marta G.Spenser tomonidan ayrim bo'laklar yoki elementlarning bir-biriga qo'shilishi, bir butun yagonaga aylanishi, yaxlitlanishi sifatida izohlangan. G'arb mamlakatlarida integrativ dasturlar asosida ta'lim olib boriladigan maktablar ancha oldin yuzaga kelgan. XVIII asrda Chikagodagi Dyu maktabi (Ecole Diu, 1898-1948), XIX asrda Amerikadagi Linkoln maktabi (Ecole de Lincolne, 1926) va Xyuston maktablari (Ecole de Hustone, 1924-1930) bunga misol bo'la oladi. Ushbu maktablarda ta'lim beruvchilar darsning maqsadiga erishish uchun o'quvchilarga dars jarayonida muayyan mashq va topshiriqlarni bajarishda jamoa

bo‘lib ishlashni taklif etishgan. Mashqlarda o‘quvchilarning qiziqishiga qarab hayotiy jarayonlar misol sifatida berilgan va turli muammoli vaziyatda uning yechimini topish ko‘nikmalari hosil qilingan. Ayni jarayonda fanga integrativ yondashuv vositasida talabalarda kommunikativ kompetensiya shakllantirib borilgan.

XX asrning 70-80-yillarida Genri Vinsrop (Henri Winthrop 1973), J.Alatis (James Alatis 1978), Koen Vrinlar (Koen Vrins 1978) tomonidan integratsiyalashgan ta‘lim g‘oyasi ilgari surildi. Jumladan, Hindistonda doktor Karan Sing (Karan Singh) nomli integrativ ta‘lim instituti faoliyat ko‘rsata boshladi.

“Integratsiya” so‘zi lotincha, “integer” butun so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, “integratio” – tiklash, to‘ldirish o‘zaro aloqa jarayoni ma’nolarida ham qo‘llanadi. O‘zbek tilining izohli lug‘atida “Integratsiya lotincha integratio – tiklash, qaytadan boshlash, to‘ldirish degan tushunchalarni ifodalab, quyidagi ma’nolarni anglatgan: 1. Ayrim qismlarning, elementlarning bog‘liqlik holatini, ularni qo‘shib birlashtirishni ifodalovchi tushuncha; 2. Fanlarning yaqinlashishi va o‘zaro bog‘lanish jarayoni; 3. Ikki va undan ortiq davlatlarning iqtisodiyotini o‘zaro muvofiqlashtirish va birlashtirish” kabi⁷.

O‘zbekiston milliy ensiklopediyasida “integral” lotincha integer – “butun” degan tushunchani ifodalab, matematik tahlilning asosiy tushunchalaridan biridir. Integrallash tushunchasi ham matematikada integralni izlash amali degan ma‘noni ifodalashi qayd etib o‘tilgan⁸.

V. Myullerning inglizcha va ruscha lug‘atida mazkur terminga quyidagicha ta‘rif berilgan: “Integral” – 1) muhim; 2) to‘la, butun, yaxlit integrallashgan, integrativ – to‘la va butun qilish, butunni tashkil qilish, o‘rtacha qiymati yoki umumiy miqdorini aniqlash; 3) mat. integrallashtirish. Integratsiya – 1. mat. integratsiya, integrallash; 2. bir- biriga birlashtirish”⁹.

“Le petit Larousse” (fransuzcha izohli lug‘at) lug‘atida esa quyidagicha izohni uchratish mumkin: Integral (intégrale) - 1. To‘liq, butun; Integratsiyalash (Intégration) 2. Ikki yoki undan ortiq narsalarni to‘liq tizim yoki bo‘lak bo‘lishi uchun birlashtirish¹⁰.

Tadqiqotlarda integratsiya tushunchasini quyidagi yo‘nalishlarda tadqiq etishni tavsiya etadilar: 1. O‘quv predmetlari va fanlar turkumi doirasidagi mazmunni integratsiyalab o‘rganish; 2. Turli o‘quv predmetlaridan tahsil beruvchi shaxslarning faoliyatlarini integratsiyalash; 3. Ta‘lim-tarbiya ishini tashkil etish shakllarini integratsiyalash kabilar.

Tadqiqotchi R. Mavlonova ta‘rificha, “Integratsiya – “butun” degan ma‘noni bildiradi, demak, bu tafakkur o‘shisi jarayonining turli qismlarini yaxlitlashdir”. R. Konchakovskiy integratsiyani 4 ta asosiy darajaga ajratadi. Ular: 1. Sistemali; 2. Modelli; 3. Kompleksli; 4. Analitik.

⁷ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. №2. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti. -T.: 2002. – B. 265

⁸ O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi ., Toshkent -2013, 212 bet.

⁹ V.K. Muller`s Russian –English Dictionary -published 2004. P 388.

¹⁰ Le Petit Larousse . LAROUSSE-17, du Montparnasse-Paris 2006 .556 p

Keyingi yillarda ta'lim sohasiga ham integratsiya (intégration), integrativ yondashuv (approche intégrative), integrativ yondashuv mahorati (compétences en approche intégrative) tushunchalari kirib keldi, tillarni o'qitish amaliyotida faol qo'llana boshlandi.

Jahon tajribasida tillarni o'rganishda turlicha yondashuvlardan foydalanib kelingan va ular muntazam ravishda takomillashtirib borilgan.

Jumladan tadqiqotchilardan N.Geiz chet til o'qitish metodikasida 4 ta asosiy - bixevioristik, induktiv-ongli, kognitiv va integrativ yondashuvlar mavjudligini ko'rsatgan. Chet til o'qitish metodistlaridan G.Rogova esa chet tilini o'rgatishda 5 ta yondashuvni – ongli yondashuv (approche consciente), amaliy yondashuv (approche pratique), strukturali yondashuv (approche structurale), situativ yondashuv (approche situationnelle), turli xil yondashuvlarni (approche différente) o'z tadqiqotlarida taklif etgan.

Tadqiqotchi M.Vyutnev esa chet tilni o'rganishda 6 ta yondashuvni – grammatik yondashuv (approche grammaticale), to'g'ri yondashuv (approche directe), bixevioristik yondashuv (approche comportementaliste), o'qish orqali yondashuv (approche par la lecture), guruh orqali yondashuv (approche par le groupe), kombinatsiyalashgan individual yondashuvlarni (approche individuelle combinée) ko'rsatib o'tgan.

Shuningdek, tadqiqotchi K.Alimova esa hozirgi sharoitda ingliz tilini o'qitishda 4 ta yondashuvni muhimligini ta'kidlaydi: og'zaki yondashuv (approche d'orale), ongli yondashuv (approche consciente), nutqiy muloqot yondashuv (approche communicative), kognitiv yondashuv (approche cognitive).

Demak, ilmiylik nuqtai nazaridan olib qaraganda integratsiyaning asosini olamning yaxlitligi va uni tashkil etuvchi qism (element)larning o'zaro aloqadorligi, munosabatlari tashkil etadi. Genetik jihatdan integratsiya-uzviylik, predmetlararo aloqadorlik, o'zaro aloqadorlik va nihoyat, o'zaro bir-birini to'ldiruvchi, kengaytiruvchi hamda chuqurlashtiruvchi tushunchalarni ifodalaydi. Integratsiyalashgan ta'limning didaktik xususiyatlarini quyidagilar tashkil qiladi: integratsiyalashgan darslarning birinchi xususiyati talaba shaxsiga yo'naltirilganligidir. An'anaviy darslardan farqli o'laroq integratsiyalashgan ta'lim talabalarni har jihatdan rivojlantirishga, tarbiyalashga, ijodkorlikka yo'llaydi. Integratsiyalashgan darslarda o'qituvchi ta'lim jarayonini tashkil etuvchi va boshqaruvchi sifatida faoliyat olib boradi. O'qituvchi-talaba hamkorligi ta'lim jarayonini harakatga keltiruvchi asosiy faktorga aylanadi. Integratsiyalashgan darslar markazida umumlashtirilgan va tizimlashtirilgan o'quv topshiriqlari, savollar turadi, ular vositasida didaktik tahlil hamda umumlashtirish (analiz va sintez) talabalarni mustaqil izlanishga, fikrlashga, qaror qabul qilishga yo'llaydi.

Filologik OTMlarda fransuz tili (ikkinchi chet til) fani o'quv dasturlari va darsliklarini o'rganib chiqish hamda fransuz tili mashg'ulotlarini tahlil qilish ulardagi mashq va topshiriqlar nutq faoliyati turlarini integratsiyalashtirib o'qitishga yo'naltirilmagani, dars jarayonida ko'pincha nutq faoliyati turlarining (tinglab tushunish, gapirish, o'qish, yozuv) ayrim turlarigagina ahamiyat berilayotganligini ko'rsatdi. Bu talabalar kommunikativ kompetensiyasining to'liq

shakllanishi va rivojlanishiga salbiy ta'sir etib, ularda nutq faoliyatining ayrim tomonlarini zaiflashishiga olib kelmoqda. Talabalarga fransuz tilini ikkinchi chet til sifatida o'qitishda nutq faoliyati turlarini teng rivojlantirib borishgina ularning malakali mutaxassis bo'lib yetishishlarini kafolatlaydi.

Dissertasiyaning ikkinchi bobi **“Fransuz tili darslarida nutq faoliyati turlarini integrativ yondashuv asosida o'qitishda yuzaga keladigan qiyinchiliklarni bartaraf etish texnologiyasi”** deb nomlanib, mazkur bobda ingliz tili yo'nalishi talabalariga fransuz tilini o'rgatishning lingvodidaktik asoslari, nutq faoliyati turlarining integrativ yondashuv asosida o'qitish metodikasi va mashqlar tizimi, talabalarga fransuz tilini integrativ yondashuv asosida o'rgatish texnologiyasi masalalari ilmiy tadqiq qilingan.

Hozirgi kunda ta'limning asosiy talabi turli fanlardan olingan bilimlarni o'z o'rnida amaliy qo'llay olishga o'rgatish bo'lib, bu esa, o'z-o'zidan integrativ yondashuvni talab qiladi. Xorijiy tilni o'rgangan talaba nutqiy muloqot kompetensiyasi, fonetik, leksik va grammatik bilimlarni bilish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, fonetika orqali tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish, urg'uni to'g'ri qo'yish o'rganilsa, leksika orqali so'zlar o'rganiladi. Grammatikada so'z birikmalari, gap tuzilishi va zamonlar moslashuvi o'rganiladi.

Bizning maqsadimiz ilmiy ishimiz orqali og'zaki nutq (tinglash va gapirish) va yozma nutq (o'qish va yozuv) ning fransuz tili darsida birgalikda rivojlanishini targ'ib qilishdir. Olib borgan tadqiqotlarimiz natijasida shuni aniqladikki, og'zaki (tinglash va gapirish) va yozma (o'qish va yozuv) nutq talaffuz orqali rivojlanadi. Buning uchun fransuz tilini o'rganishda rag'batlantiruvchi va osonlashtiradigan integratsiyalashgan yondashuvdan foydalanish kerak. Bitta ta'lim doirasida bir nechta til ko'nikmalarini rivojlantirish dars jarayonida o'qitish-o'rganish holatining qiziqarli bo'lishini ta'minlaydi.

N.Barishnikov o'z tadqiqotlarida “ikkinchi chet tilini o'zlashtirishga, bu jarayonni yengillashtirish va tezlashtirishga nima yordam berishi, shuningdek, uning to'g'ri o'rganilishiga nima xalaqit berishi” masalasiga to'xtalib o'tgan. A. Shepilova esa “Chet tilini o'rganishda muhim omillardan biri – oldingi chet tilini o'rganish tajribasi, ishlash usullari va bir tildan ikkinchi tilga o'tish ko'nikmalaridir” degan fikrni ilgari surgan.

Til hodisalarining yaqinligi ko'pincha interferentsiyaga sabab bo'ladi: talabalar tildagi o'xshash tomonlarni qabul qiladilar, ammo farqlarni hisobga olmaydilar. Shuni ham unutmaslik kerakki, birinchi chet tilni o'rganishda orttirilgan noto'g'ri ko'nikmalar ikkinchi chet tilga ham ko'chadi. Shunday qilib, ikkinchi chet tilini o'rganish va o'qitish o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularni e'tiborsiz qoldirib bo'lmaydi.

Ko'pchilik hollarda fransuz tili ikkinchi chet til sifatida ingliz tiliga asoslanib o'rganiladi. Fransuz tilini ingliz tili asosida o'rgatishda yagona nazariy pozitsiyalar va umumiy qonuniyatlar mavjud bo'lib, ularni hisobga olish o'quv jarayonining samaradorligini ta'minlash uchun zarurdir. Ikkinchi chet tilini o'rgatishda dars samaradorligini oshirishning asosiy talablaridan biri – taqqoslash (kontrastiv) yondoshuvni amalga oshirishdir. Tadqiqotimiz davomida talabalarga nutq faoliyati

turlari – tinglab tushunish, gapirish, o‘qish va yozuvni integrativ yondashuv asosida o‘qitishda yuzaga keladigan interferension, ekstralingvistik va psixologik qiyinchiklarni tahlil etish hamda ushbu muammolarni bartaraf etish masalalariga ham to‘xtalib o‘tishni joiz deb bildik.

Til o‘rgatishdan ko‘zlangan asosiy maqsad kommunikatsiya orqali kognizant, ya’ni tilda bevosita va bilvosita muloqot qila oladigan mutaxassisni tayyorlashdan iborat. L.Iliyeva “Har qanday muloqotning yuzaga kelishi kommunikatsiyaga kirishuvchi uchun sabab, asos bo‘lishi kerak. Til muloqoti asosan nutq faoliyati turlari – tinglab tushunish, gapirish, o‘qish va yozishning o‘zaro aloqasisiz yuzaga chiqqa olmaydi”, deb hisoblaydi. Fransuz tilini ikkinchi chet til sifatida o‘rganuvchilarning nutq faoliyati turlarining ba’zi turlarini yaxshi o‘zlashtirmaganligi nutqiy aktning sekin yuz berishiga yoki to‘xtab qolishiga olib kelishi mumkin. Shu bois talabalarda fransuz tilini o‘z ona tillari darajasida o‘zlashtirishlariga erishishda nutq faoliyati turlarini mukammal o‘rgatish hamda nutq aktining uzluksizligini ta’minlashga erishish nihoyatda muhim. Buning uchun aynan nutq faoliyati turlarini integratsiyalashtirib qo‘llashga o‘rgatish talab etiladi. Fransuz tili amaliy mashg‘ulotlarida amaldagi kabi nutq faoliyatining ayrim turlarini: tinglab tushunish va gapirish yoki o‘qish va yozuv tarzida u yoki bu turini alohida o‘rgatish talabalarning chet tildagi nutqiy ko‘nikmalarini yetarli darajaga olib chiqmaydi. Ta’lim jarayonida ushbu ko‘nikmalarni amaliy integratsiyalab qo‘llash, talabalarda uchraydigan lingvistik, ekstralingvistik, psixologik qiyinchiliklarni yengish uchun tavsivaviy mashqlarini ko‘plab bajartirib borish, talabalarga tinglab tushunish, gapirish, o‘qish va yozishni bir vaqtning o‘zida erkin qo‘llay olish biridan ikkinchisiga to‘xtamasdan osonlik bilan o‘tish malakalarini shakllantiradi.

Fransuz tilini o‘qitishning integrativ maqsadi talabalarning chet tilida nutq faoliyatining asosiy turlari: tinglab tushunish, gapirish, o‘qish va yozuv bo‘yicha qulay darajadagi boshlang‘ich kompetensiyasini shakllantirishdan iborat. Talabalarning nutqiy malakalarini o‘stirish dars davomida olib boriladigan amaliy mashqlar orqali amalga oshiriladi.

Bizning fikrimizcha, maqsadga ega bo‘lish faqat puxta ishlab chiqilgan, samarali mashqlar tizimi asosida amalga oshirilishi mumkinki, bunda aynan mashq (iyeroglif, so‘z, ibora, grammatik konstruktsiya emas) o‘qitishning asosiy birligi funksiyasini bajaradi. R.Minyar-Beloruhev mashqqa ta’rif berar ekan, shunday yozadi: “Mashq bo‘linmaydigan birlik bo‘lgani bois, uni o‘qitishning elementar birligi deb hisoblash mumkin. Ayni mashq shunday bir metodik “g‘isht” hisoblanadiki, undan mashqlar tizimi barpo bo‘ladi, u o‘qitish usulining eng muhim tarkibiy qismi bo‘lib, busiz nutqiy ko‘nikmalarining shakllanishi mumkin emas”. Tadqiqotchi M.Gulyamova esa mashqqa quyidagicha ta’rif beradi “tilni o‘rganish, odatda, mashq qilish yo‘li bilan amalga oshiriladi. Mashqlarning asosiy mazmuni til o‘rganuvchilarda nutq faoliyati turlari bo‘yicha ko‘nikmalarni hosil qilish, shakllantirish va rivojlantirishga qaratiladi”.

Mashqlar nutq faoliyati turlarini egallovchi, osonlashtiruvchi va tezlashtiruvchi o'quv vositasi bo'lib, ularning tipologiyasi masalalari metodist olimlar ishlarida keng tadqiq etilgan.

E.Passov o'z vaqtida har qanday mashqlar nutqiy muloqot, lingvistik, psixologik xususiyatlarga ega degan fikrni ilgari surgan. Uning fikricha, kommunikativ mashqlar, xaqiqiy kommunikativ mashqlar va shartli kommunikativ mashqlar turlariga bo'linadi. Haqiqiy kommunikativ mashqlar muloqot jarayonida paydo bo'ladi va shartli kommunikativ mashqlar mashg'ulotlar jarayonida shartli muloqot vaziyatini yuzaga keltirishi tadqiq etilgan.

V.Rahmonov esa mashqlar tizimini til va nutq mashqlari, reseptiv produktiv, aspektli va kompleks mashqlar, yakka, juft, tayyorlov, nazorat mashqlari kabi turlarga bo'ladi.

M.Djusupov mashqlarni til sistemalarida bilimlarni shakllantirishga doir mashqlar, til dinamikasida bilimlarni shakllantirishga doir mashqlar, nutq faoliyatida ko'nikma va malakalarni shakllantiruvchi mashqlar kabi uchta asosiy turga ajratishni tavsiya etadi. Uning fikricha, ushbu mashqlar kompleks mashqlar bo'lib, birinchi va ikkinchi mashq turlarining tayyorlov mashqlari (dastlabki va elementar) hamda uchinchi mashq turini esa asosiy mashqlar (analitik, situativ, nutqiy muloqot va ijodiy) deb hisoblash mumkin.

S.Saydaliyev mashqlarni ikkita turga ajratadi tilga oid mashqlar va tayyorlov mashqlari. Uning fikricha: "tilga oid mashqlarni nutqiy amaliyot bilan bog'lash, pirovard natijada tildan muomala vositasi sifatida foydalanish, malakasini rivojlantirish uchun xizmat qiladi. Tayyorlov mashqlari faqat til materialini (fonetik, grammatik, leksik) o'zlashtirishni ta'minlovchi mashqlarigina o'z ichiga olmay, balki fikrlarni shakllantirish va ifodalash usullarini o'rgatuvchi, nutq mexanizmlarini shakllantiruvchi mashqlarni ham o'z ichiga oladi".

M.Gulyamova tadqiqot ishida quyidagi xulosalarni beradi "... mashq bu biror bir faoliyatni egallash uchun qaratilgan va o'quv jarayonini takomillashtirish hamda mustahkamlashga xizmat qiladigan ketma-ket yoki alohida bajariladigan amaliy harakatlardir. Mashqlar talabalar bilim darajalariga mos ravishda tanlanadi va dars materialiga asoslanib tasniflanadi, nutq faoliyati turlari bo'yicha taqsimlanadi va dars davomida mavzuni mustahkamlab o'zlashtirishga yo'naltiriladi. Vazifa esa aniq maqsad uchun bajariladigan muammoli vaziyatni hal etishda kerak bo'ladigan topshiriqlar in'ikosidir".

Bizning olib borgan tadqiqot ishimiz nutq faoliyatining muayyan turi tushunish, gapirish, o'qish va yozuv ko'nikmalaridan samarali foydalanishga qaratilgan bo'lib, tadqiqotimiz jarayonida nutq faoliyati turlarini uyg'unlashtirib qo'llashga yo'naltirilgan integrativ mashq va topshiriqlarni loyihalashga harakat qildik. Tadqiqotimiz jarayonida nutq faoliyati turlarini uyg'unlashtirib qo'llashga yo'naltirildi.

Nutq faoliyati turlariga integrativ yondashuv kommunikativ kompetensiyani tezlashtirishga va rivojlantirishga yordam beradi. Bu jarayonda o'qituvchilardan ham, talabalardan ham yuqori interfaol bo'lish talab etiladi. Fransuz tilini ikkinchi chet til sifatida o'qitishda integratsiyalashgan mashq va topshiriqlarni joriy etish,

ta'lim jarayoniga samarali interfaol usullarni tatbiq etish dars samaradorligini oshiradi. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun "Kontekstdan topish" (Trouver dans le contexte), "Yakka, juft va guruh bo'lib o'ylash va baham ko'rish" (Individuelle, groupe et partage), "Optimistlar va pessimistlar" (Optimistes et pessimistes), "Yo'naltiruvchi intervyu" (Un entretien guidé), "A dan Z gacha" (de A à Z), "Rolli o'yinlar" (Un jeu de rôle), Klaster (Clastère), Muammoli o'qish (lecture de puzzle) kabi pedagogik texnologiyalardan foydalanish ta'lim samaradorligini kafolatlaydi.

Integrativ mashqlarning dastlabki bosqichi uchun nutq faoliyatining barcha turidan dars jarayoni davomida foydalanish ko'zda tutiladi hamda retseptiv, reproduktiv va produktiv mashqlar qo'llaniladi. Yuqori bosqich uchun esa bu jarayon tezlashtirilib, o'rganilayotgan bitta matn ichida to'rtta nutq faoliyati turlarini qo'llash tavsiya etiladi. Ushbu bosqichda esa situativ-kommunikativ, ijodiy va integrativ mashqlardan foydalanish maqsadga muvofiq. Fransuz tili mashg'ulotlarida nutq faoliyati turlarini integratsiya qilish (ya'ni, tinglash, gapirish, o'qish va yozishni birgalikda o'rganish) til o'rganish samaradorligini ortishini ko'rsatmoqda. Nutq faoliyatlarining integratsiyasi talabalarga tilni barcha jihatdan tushunish va qo'llash imkoniyatini beradi. Masalan, "Jinoyat va jazo" mavzusi bo'yicha berilgan materialni o'qish, bu mavzu bo'yicha suhbatlashish va yozish orqali talabalar mavzuni yanada chuqurroq tushunadilar.

Xulosa qilib aytganda, mashq va topshiriqlarni shu tarzda tizimlashtirib borish orqali amaliy mashg'ulotlarda nutqiy faoliyat turlaridan muntazam foydalanish, talabalarining ham og'zaki ham yozma nutqini rivojlantirib borishida yordam beradi. Ushbu mashq va topshiriqlarni bajarish jarayonida guruhlarga bo'linib, ishlash, talabalarining ham dialogik, ham monologik nutqini rivojlantirishga olib keladi. Fransuz tilini ikkinchi chet til sifatida nutq faoliyati turlarining integratsiyalashgan yondashuv asosida o'qitishda aniq bir metod yoki tamoyildan foydalanilish mushkul, chunki bu jarayon psixofiziologik jarayon bo'lib, til o'rganuvchining yoshi, qiziqishi va undagi til o'rganish qobiliyatiga bog'liqdir. Shuning uchun ham fransuz tili darslarida nutq faoliyati turlarining integrativ yondashuv asosida o'rgatish umumiy metodik tamoyillariga asoslanadi.

Demak, har bir bosqich bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ularda izchillik mavjud. Bu esa o'quv jarayonini samarali va muvaffaqiyatli ta'minlashga imkon yaratadi. Ta'lim oluvchilarning darsdagi faoliyatini faollashtirish, ularning o'zlashtirish darajalari hamda ularda ma'lum faoliyat bo'yicha malaka va ko'nikmalarni hosil qilish darsda foydalanadigan metodlarga bog'liq.

Dissertasiyaning "**Ingliz tili yo'nalishi talabalariga fransuz tilini ikkinchi chet til sifatida o'qitishning eksperimental tadqiqi**" nomli 3-bobida ingliz tili yo'nalishi talabalarining fransuz tilida nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish bo'yicha o'tkazilgan tajriba-sinov ishlarini tashkil etish, undan ko'zlangan maqsad va vazifalar, tajriba-sinov ishlarining miqdoriy va sifat ko'rsatkichlari, fransuz tili o'rgatish jarayonida talabalarining nutqiy kompetensiyalarining rivojlanish holatining tahlili hamda natijalari yoritilgan.

Tajriba-sinov ishlari uch bosqichda amalga oshirildi: 1. Aniqlovchi bosqich (2020-2021-yillar); 2. Rivojlantiruvchi bosqich (2021-2022-yillar); 3. Yakunlovchi bosqich (2022-2024-yillar). Tajriba-sinov maydonchalari sifatida Namangan davlat universiteti Jahon tillari fakulteti talabalaridan 254 nafar, Andijon davlat chet tillari instituti talabalaridan 251 nafar, O‘zbekiston milliy universiteti talabalaridan 250 nafar, jami 755 nafar talaba tajriba-sinov ishlarida qatnashdi.

Tajriba-sinov ishlarining **Aniqlovchi bosqichida** reja tuzish, diagnostik metodikalar asosida talabalarning nutqiy muloqot kompetensiyasi shakllanganligining mavjud holati aniqlandi; **Rivojlantiruvchi bosqichda**-chet til amaliy mashg‘ulotlari jarayonida ingliz tili yo‘nalishi talabalarida fransuz tilida nutqiy muloqot kompetensiyalarni integrativ yondashuv orqali rivojlantirish bo‘yicha maqsadga yo‘naltirilgan faoliyat olib borildi; **Yakunlovchi bosqichda**-tajriba va nazorat guruhlarini natijalarini qiyosiy tahlil qilish, natijalarni statistik tahlil etish va xulosa chiqarildi.

Aniqlovchi bosqichda fransuz tilini ikkinchi chet til sifatida o‘qitilishining hozirgi holati o‘rganildi, oliy ta‘lim muassasalaridagi o‘quv-uslubiy ta‘minoti - namunaviy dastur, o‘quv reja, ishchi o‘quv dasturi, darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar tahlil etildi. Bundan tashqari, fransuz tili darslari kuzatildi, darslarda nutq faoliyati turlarini o‘rgatish holati asnosida tajriba-sinov ishlari dasturi mazmuni aniqlandi. Fransuz tilini o‘rganish bo‘yicha talabalar o‘rtasida anketa so‘rovnomalar o‘tkazildi, fransuz tili fanidan test sinovlari, gapirish, tinglab tushunish, o‘qish va yozuv ko‘nikmasiga doir mashqlar o‘tkazildi. Nutq faoliyati turlarini o‘zlashtirishdagi qiyinchiliklarga doir suhbatlar olib borildi. Suhbatlarda talabalarning fransuz tilini o‘rganishdagi to‘siq bo‘layotgan omillar-so‘zlarni o‘qilishidagi qiyinchiliklar, so‘zlarni eslab qololmaslik, fransuz tilida gapirishdagi muammolar, yozuvdagi orfografik xatolar, tinglab tushunishdagi qiyinchiliklar aniqlandi va shakllantiruvchi tajriba-sinov bosqichida ushbu omillarni bartaraf etuvchi mashqlar va yangi texnologiyalarni qo‘llab tajriba guruhlarida dars jarayonlari olib borildi. Bundan tashqari, fransuz tilini ikkinchi chet til sifatida o‘rganuvchi talabalar uchun o‘quv qo‘llanma yaratildi.

O‘rganish va tahlillar natijasida tajriba-sinov maydonlari va ularda tajriba guruhlarini tanlab olindi, tajriba-sinov ishlarida qatnashuvchi professor-o‘qituvchilar va talabalar aniqlashtirildi, ularga tadqiqot va tajriba-sinov maqsadi, ilmiy farazi hamda vazifalari tanishtirildi, shu yo‘nalish va shu tajriba maydonidagi mavjud shart-sharoit uchun tajriba-sinov dasturi ishlab chiqildi.

1-jadval

Oliy ta‘lim muassasalaridan tajriba-sinov ishida ishtirok etgan professor-o‘qituvchi va talabalar soni

№	Oliy ta‘lim muassasalari	Ishtirok etganlar soni	
		Professor-o‘qituvchilar	Talabalar
1.	Namangan davlat universiteti	6	254
2.	O‘zbekiston Milliy universiteti	5	250
3.	Andijon davlat chet tillar instituti	6	251
Jami		17	755

Oliy ta'lim muassasalarida fransuz tilini ikkinchi chet til sifatida o'rganuvchi talabalarga integrasiyalashgan dars jarayonini tashkil etish bo'yicha va ushbu holatni haqqoniy baholash maqsadida anketa-so'rovnomalar, test savollari o'tkazildi.

So'rovnomalar tajriba-sinov oldi bosqichida o'tkazish uchun mo'ljallangan bo'lib, ikkinchi chet tilini integrativ yondashuv asosida o'rganish jarayonida talaba qanday muammolarga duch kelishini aniqlashga qaratilgan. Unda tajriba maydonlaridan quyidagi sondagi respondentlar ishtirok etdilar:

2-jadval.

Tajriba-sinovning anketa – so'rovnomasida ishtirok etgan respondentlar soni

Tajriba sinov maydonlari	Respondentlar soni	2-bosqich	3-bosqich
O'zMU	250	129	121
ADChTI	251	125	126
NamDU	254	123	131
Jami	755	377	378

Talabalardan olingan so'rovnomalar natijasida deyarli barcha talabalar ikkinchi xorijiy til sohani chuqurroq o'rganish, o'zini har tomonlama rivojlantirish hamda chet el adabiyotlarini o'qish, o'rganish uchun kerakligini aytdilar.

3-jadval.

Talabalarning fransuz tilidagi nutqiy muloqot kompetensiyasi shakllanganlik darajasi bo'yicha o'z-o'zini baholash natijalari

Ball	O'zbekiston Milliy universiteti	Andijon davlat chet tillari instituti	Namangan davlat universiteti
0-2	12%	14%	11%
4-6	75%	68%	75%
8-10	13%	18%	14%

Tajriba-sinov ishlarining avvali va yakuniy bosqichida talabalar faoliyatini tahlil etish, ularning fransuz tili darslarida nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish texnologiyalarining samaradorlik darajalarini baholash bo'yicha ijobiy ko'rsatkichlarni qo'lga kiritdik.

4-jadval.

Tajriba va nazorat guruhlaridagi talabalarda nutqiy muloqot kompetensiyalarini shakllanganlik va rivojlanganlik ko'rsatkichi natijalari

Ko'rsatkichlar	5 (a'lo)	4 (yaxshi)	3 (qoniqarli)	2 (qoniqarsiz)	jami
Tajriba guruhlari	140	124	83	29	376
Nazorat guruhlari	73	92	152	62	379
Jami	213	216	235	91	755

Bundan tashqari, talabalarning nutq faoliyati turlarini (gapirish, tinglab tushunish, o'qish va yozuv) egallanganlik darajasini aniqlash maqsadida dastlab tekshiruv ishlari olib borildi. Nazorat ishi natijalari 4-jadvalda o'z aksini topgan.

3-bosqich talabalariga motivasion, kognitiv va nutqiy muloqot funksiyalarini qo'llagan holda tayyorlangan topshiriqlar berildi.

5-jadval

Tajriba-sinov avvalida talabalarining nutq faoliyati turlarini egallaganlik darajalari (% jami talabalar soniga nisbatan olindi)

Topshiriqlar turlari	Tajriba guruhi (jami 376 nafar)				Nazorat guruhi (jami 379 nafar)			
	To'g'ri javoblar		Noto'g'ri javoblar		To'g'ri javoblar		Noto'g'ri javoblar	
	Talabalar soni	%	Talabalar soni	%	Talabalar soni	%	Talabalar soni	%
Gapirish	128	45.4%	125	54.6%	120	53.4%	129	46.6%
Tinglab tushunish	129	48%	124	52.%	119	46.8%	130	53.2%
O'qish	130	50.6%	123	49.4%	121	49.2%	128	50.8%
Yozuv	127	50.3%	126	49.7%	118	49%	131	51%
		51.4%		49.5%		50.4%		48.5%

Tadqiqotimizning ikkinchi rivojlantiruvchi bosqichi talabalarga fransuz tilini integrativ yondashuv asosida o'qitishning nazariy va amaliy asoslarini takomillashtirish konsepsiyasini ishlab chiqish va asoslashga bag'ishlandi. Tadqiqot ishlarining holatini aniqlash uchun talabalarining fransuz tilidagi bilim, ko'nikma va malakalarini quyidagi motivatsion (fanga oid axborot bilan ishlash), kognitiv (integrasiyalashgan ta'lim mazmun-mohiyatini anglash) amaliy-faoliyatli (ta'lim sharoitida tilga oid muammolarning maqbul yechimlarini topish va o'zi ham shu kabi vaziyatlar yaratib natijaga erishish) mezonlari asosida talabalarining bilim, ko'nikma va malakalari rivojlantirildi va baholandi. Ingliz tili yo'nalishi talabalariga fransuz tilini ikkinchi chet til sifatida o'rgatishda nutq faoliyati turlari integratsiyasi bo'yicha olingan nazorat topshiriqlari natijalariga ko'ra, talabalarda nutq faoliyati turlarida quyidagi kamchiliklar mavjudligini ko'rsatdi.

6- jadval

Nutq faoliyati turlarida talabalarda kuzatilgan kamchiliklar.


Tinglab tushunishga doir kamchiliklar.	Gapirishga doir kamchiliklar	O'qib tushunishga doir kamchiliklar	Yozuvga doir kamchiliklar
So'z boyligi kamligi va ularni xato to'ldirishlik	Yetarlicha so'z boyligiga ega emasliklari va so'zlarni o'rinli qo'llay olmasliklari	Matnni o'qish davomida matnda uchragan ayrim notanish so'zlarni to'g'ri o'qishga qiynalishlari	Gaplarni mantiqiy bog'lay olmasliklari va grammatik xatolar
Nutqning tezligi va turli xil maromda ekanligi	Grammatik jihatdan jummalarni to'g'ri tuza olmasliklari xamda qisqa gaplar tuzishligi	So'zlarni o'z ona tiliga tarjima qilishda mantiqiy mushohada yuritishga qiynalganliklari	Yozma nutqda leksik birliklarning kamligi
Matnni oldindan taxminan fahmlay olmasliklari va kalit so'zlarni tushuna olmasliklari	Xato qilishdan qo'rqishlari fikrlarini va diqqatlarini bir joyga to'play olmasliklari	Matnni yetarli darajada tez o'qiy olmasliklari o'qish borasida tajribaning kamligi	O'z fikrlarini to'liq bayon etib yoza olmasliklari so'z boyligini kamligi va so'zlarni o'rinli qo'llay olmaslik

Turli xil frazeologik birliklar va iboralarni tinglab anglay olmasliklari	Mavzu bo'yicha yetarlicha ma'lumotga ega emasliklari va so'zlarni talaffuz qilishdagi qiyinchiliklar	O'qish strategiyalariga amal qilmasliklari	Yozuv jarayonida grammatik leksik, fonetik, imlo xatolar qilishlari
Diqqatni jamlay olmasliklari	Tezda muloqotga kirishib o'z fikrlarini mustaqil bayon eta olmasliklari ya'ni mustaqil fikrlashga qiynalishlari	Har bir gapni so'zma so'z tarjima qilib matnni g'oyasini chiqara olmaslik shu sababli vaqtdan unumli foydalana olmasliklari	Yozuv strukturasi ega emasliklari va yozuv bo'yicha yetarlicha tajribaning yo'qligi

O'tkazilgan pedagogik tajriba-sinov ishlari natijalarini matematik-statistik usullar bilan tekshirish va tahlil qilish ishonchli xulosalarni chiqarish imkonini beradi. Pedagogik ilmiy-tadqiqot ishlari uchun bunday usullar yetarli darajada ishlab chiqilgan.

Pedagogik tadqiqotlar uchun shu narsa muhimki, bunda qo'llaniladigan vositalarning samaradorligi muayyan bir guruh, obyektlarning (talabalar guruhi, o'quvchilar guruhi va h.k.) yoki turli guruhlar, obyektlarning ma'lum bir vaqt ichida erishgan yutuqlari yoki xulosalarini taqqoslash asosida tekshiriladi.

O'tkazilgan tajriba-sinov ishlari davomida og'zaki va yozma so'rovnomalar, suhbat, fransuz tili darslarini kuzatish, o'quv dasturlari, darsliklar va dars jarayonini tahlil qilish, mashg'ulotlarni integrativ yondashuv asosida tashkil etishga qaratilgan samarali metodlar, texnologiyalar, mashqlar va topshiriqlarni tajriba-sinovdan o'tkazish integrativ mashq va topshiriqlardan foydalanish kutilgan natijani qo'lga kiritishda muhim asos bo'ladi.



Olingan natijalardan o'qitish samaradorligini baholash mezonining birdan kattaligi va bilish darajasiga mos keluvchi baholash mezonining noldan kattaligi bilan ko'rish mumkin. Demak, fransuz tili darslarida talabalarning nutqiy muloqot va kasbiy kompetensiyalarini nutq faoliyati turlari orqali integrativ yondashuv asosida rivojlantirish metodikasini sinovdan o'tkazish bo'yicha o'tkazilgan tajriba-sinov ishlari samarador ekan va bu samaradorlik o'rtacha 13,5 % ni tashkil etadi. Demak, talabalarda integratsiyalashgan mashq topshiriqlar natijasida talabalar nutq faoliyatlarining o'sishi darajalarini tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozuv bo'yicha o'zlashtirishlarining samaradorlik darajasini aniqlash bo'yicha

o'tkazilgan tajriba-sinov ishlari tadqiqotimizda ilgari surilgan ilmiy-nazariy farazlarimizni tasdiqladi. Tadqiqot ishimizda tavsiya qilingan nutq faoliyati turlarini integratsiyalashning turlarga bo'lingan mashqlar tipologiyasi samarali ekanligi dalillandi.

XULOSALAR

Ingliz tili yo'nalishi talabalariga fransuz tilini ikkinchi chet til sifatida o'qitishda integrativ yondashuv texnologiyasi mavzusida olib borilgan tadqiqot natijasida quyidagi xulosalar umumlashtirildi:

1. Chet tildan mutaxassislik beradigan ingliz tili yo'nalishlarida fransuz tilini o'qitish mazmunini zamon talablari darajasida takomillashtirilishi talabalarning tilga oid lingvistik va nutqiy kompetensiyalarini yanada rivojlantirishning asosiy omillardan biri hisoblanadi. Buning uchun fransuz tili o'qituvchilarning integratsiyalashgan ta'limni tashkil etish bo'yicha ilmiy, pedagogik va metodik tayyorgarligini ta'minlash hamda integratsiyalashgan ta'lim texnologiyalaridan foydalanish malakalarini takomillashtirish talab qilinadi.

2. Integrativ yondashuv ta'limning zamonaviy usuli sifatida pedagogik ta'limda muhim o'rin tutadi. Hozirgi kunga kelib jahonning 70% mamlakatlarida integrativ tarzda yaratilgan o'quv dasturlar va darsliklardan foydalanib kelinmoqda. Chet tillarni integrativ yondashuv asosida o'qitish o'quvchi-talabalarga turli fanlardan egallangan bilimlarni nutq faoliyatining to'rt turi – tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozuv vositasida amaliy qo'llash malakalarini rivojlantirishga yordam beradi

3. Tahliliy kuzatuvlar fransuz tili amaliy mashg'ulotlarida nutq faoliyati turlarining ayrim turlarigina (o'qish va yozuv yoki tinglab tushunish va gapirish) faol qo'llanilayotganini ko'rsatdi. Fransuz tilini o'qitishda talabalarning tinglab tushunish va gapirish jarayonida nutq tovushlarining talaffuzida omofonlarning qo'llanilishidagi, o'qish va yozuvda omograflarning qo'llanilishidagi qiyinchiliklarni bartaraf etish, darsliklardagi mavjud imkoniyatlardan foydalanish orqali darslarda talabalarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish mashg'ulot jarayonida nutq faoliyati turlarining barchasini integratsiyalashtirishni, ya'ni bir darsning o'zida to'rtala nutq faoliyatini teng barobar qo'llashni taqozo etadi.

4. Fransuz tilini o'qitishda qo'llanib kelgan an'anaviy yondashuv fransuz tili o'quv fan dasturlari va o'quv-uslubiy majmualar mazmunini qiyoslash, ularda nutq faoliyati turlarini alohida rivojlantirishga e'tibor qaratilganini ko'rsatdi.

Ingliz tili talabalarning kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish, nutq faoliyati turlarining to'rtala turini birdek rivojlantirish zaruratidan kelib chiqib filologik yo'nalishdagi OTMLar o'quv dasturlari takomillashtirilishi zarur.

5. Chet tillarni, xususan, fransuz tilini o'qitishda nutq faoliyati turlarini integratsiyalashtirib o'qitishning 2- va 3- bosqich uchun mashq va topshiriqlar qo'llashni, bunda ikkinchi bosqich uchun retseptiv, reproduktiv, produktiv mashqlardan, uchinchi bosqich uchun esa situativ-kommunikativ, ijodiy va integrativ mashqlardan foydalanish maqsadga muvofiq. Ushbu mashqlar ikkinchi

bosqich talabalari tomonidan mashg'ulot davomida nutq faoliyatining tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozuv turlarini teng darajada qo'llashga qaratilishi, uchinchi bosqichda har bir autentik materialni o'zlashtirishda nutq faoliyati turlarining barchasidan foydalanishga yo'naltirilishi ko'zda tutiladi.

6. OTMLlarda dars samaradorligini oshirishda integratsiyalashgan mashq va topshiriqlar, interfaol metodlardan foydalanishning ahamiyati katta. Fransuz tilida nutq faoliyati turlarini rivojlantirishda "Yo'naltiruvchi intervyu" (Un entretien guidé) "Optimistlar va pessimistlar" (Optimistes et pessimistes), "Rolli o'yinlar" (Un jeu de rôle), "A dan Z gacha" (de A à Z), "Muammoni top" (Trouve le problème) kabi mashqlar va integratsiyalashgan interfaol metodlardan foydalanish ta'lim samaradorligini kafolatlaydi.

7. O'tkazilgan tajriba-sinov ishlari davomida nutq faoliyati turlarini integratsiyalashtirishga yo'naltirilgan mashq va topshiriqlar mashg'ulotlarni integrativ yondashuv asosida tashkil etishga qaratilgan samarali usul va metodlarni tajriba-sinovdan o'tkazish, integrativ mashq va topshiriqlardan foydalanish, ilmiy-nazariy jihatdan asoslangan g'oyaning samaradorligini dalilladi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Ingliz tili yo'nalishi talabalariga fransuz tilini ikkinchi chet til sifatida o'qitishda o'qituvchilarning pedagogik faoliyatini puxta rejalashtirish, fransuz tili amaliy mashg'ulotlarida har bir talabaning real shaxsiy imkoniyatlarini hisobga olish, ijodiy, muammoli-izlanish xarakteridagi usullardan foydalanish tavsiya etiladi.

2. Tadqiqotda ingliz tili yo'nalishi talabalariga fransuz tilini ikkinchi chet til sifatida o'qitish talabalarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish maxsus jarayon sifatida ko'rib chiqildi. Fransuz tilini integrativ yondashuv asosida o'qitishning mohiyati va mazmuni nazariy jihatdan asoslab berildi. Fransuz tilini ikkinchi chet til sifatida o'qitishda integrativ yondashuv asosida ta'lim mazmunini tanlash, fanlararo hamkorlikka asoslangan jarayonlarni yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq.

3. Ingliz tili yo'nalishlarida fransuz tilini ikkinchi chet til sifatida o'qitish orqali talabalarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishda tilga oid - o'zbek, rus, ingliz va fransuz tillari o'quv fanlarining xususiyat hamda imkoniyatlarini hisobga olgan holda fanlar va ta'lim mazmuni integratsiyasini ta'minlash orqali o'qitishni samarali tashkil qilish lozim.

4. Ingliz tili yo'nalishi talabalariga fransuz tilini ikkinchi chet til sifatida o'qitishda zamonaviy darslik va qo'llanmalarni yaratish bugungi kun talabidir. Fransuz tili darslik va qo'llanmalarni yaratishda nutqiy kompetensiyani rivojlantirishda til ichki va tillararo interferensiya (qiyinchilik va xato) hamda transpozisiya (ijobiy ta'sir) hodisalarini hisobga olish zarur. Ayniqsa, talabalarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishda fransuz tili o'qitish maqsadlarini zamonaviy talablarga bo'ysundirish ijobiy samara beradi. Fransuz tili ta'limining bugungi kungi dasturiy talablarini integrativ yondashuvga yo'naltirilgan holda ta'minlanish maqsadga muvofiq.

**ONE TIME SCIENTIFIC COUNCIL PhD.03/05.05.2023.Fil.163.01
WARDING ACADEMIC DEGREES AT NAMANGAN STATE INSTITUTE
OF FOREIGN LANGUAGES NAMED AFTER I.IBRAT**

NAMANGAN STATE UNIVERSITY

ATAMIRZAYEVA E'ZOZA BEKMIRZAYEVNA

**THE TECHNOLOGY OF TEACHING THE FRENCH LANGUAGE
TO STUDENTS BASED ON AN INTEGRATIVE APPROACH**

**13.00.02 – THE THEORY AND METHODOLOGY OF EDUCATION AND
UPBRINGING (THE FRENCH LANGUAGE)**

ABSTRACT

**OF DISSERTATION OF THE DOCTOR OF PHILOSOPHY (PhD) on
PEDAGOGICAL SCIENCES**

Namangan-2025

The theme of the Doctor of Philosophy (PhD) dissertation in Pedagogical Sciences is registered with a number B2024.3.Phd/Ped2840 in the Higher Attestation Commission of the Republic of Uzbekistan.

The dissertation was completed at Namangan State University.

Dissertation abstract in three languages (Uzbek, Russian, English) is available on the website of the Council (www.namsifl.uz) and "ZiyoNet" Information and Education portal (www.ziynet.uz)

Scientific supervisor:

Yakubbayev Murodilla Marufovich

Doctor of Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Official opponents:

Askarova Ugilkhon Mamashakirovna

Doctor of Science (DSc), Professor

Ishanjanova Munosibkhon Saidahmadovna

Doctor of Philological Sciences (PhD), Associate Professor

Leading organization:

Fergana State University

Dissertation defense PhD at the Namangan State Institute of Foreign Languages. 03/05/05/2023. Phil. Scientific Council No. 163.01 will be held at the meeting of "___" _____, 2025 at _____. (Address: Saodat street, 28, Turakurgan city, Namangan region, Tel.: +998 (69) 442-11-67; e-mail: info@namsifl.uz/namchi-1@exat.uz/namdchti@edu.uz).

The dissertation can be viewed at the Information Resource Center of the Namangan State Institute of Foreign Languages (registered with number ____). (Address: Saodat Street, 28, Namangan Region, Turakurgan City, Tel.: +998 (69) 442-11-67).

Dissertation abstract was distributed on _____, 2025.

(Register statement No. ___ dated "___" _____, 2025).

N.T.Dosbayeva

Chairman of Scientific Council Awarding Academic degrees, Doctor of Philological Sciences, Professor

I.I.Umrzaqov

Secretary of Scientific Council Awarding Academic degrees, Doctor of Philosophy in Philological Sciences, Associate Professor

S.A.Misirov

Chairman of Scientific Seminar of the Scientific Council Awarding Academic degrees, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor

INTRODUCTION (Doctor of Philosophy (PhD) dissertation abstract))

The relevance and necessity of the dissertation topic. In the modern world, it is becoming increasingly clear that the comprehensive development of society is related to the content and quality of education. The rapid penetration of globalization processes into the field of education, the abundance of information flows, and the development of innovative technologies require corresponding changes in the content of education. The task of education today is directly related to such methodologically important problems of pedagogy as the implementation of state policy in the field, the qualitative fulfillment of state requirements for personnel training, the creation of a modern generation of educational literature, and the continuous improvement of the methodology of teachers and trainers. The solution of these problems ensures the qualitative fulfillment of state requirements for the content of education and leads to a positive solution to the main conceptual issues of education. The need for widespread use of information and data within the scope of one's field, which has arisen as a result of globalization in the world, has further strengthened the need for the development of professional and communicative competence in foreign languages.

In the world, a number of scientific studies are being conducted in the field of language education (linguodidactics) on the study of communicative competence and professional and communicative activity. In higher education institutions of developed countries, including Quebec (Université du Québec, Canada), Sorbonne (Université de Sorbonne), Oxford (Université D'Oxford), Cambridge (Université de Cambridge), Toronto (Université de Toronto), Kazan Federal University (Université fédérative de Kazan) and Russian Peoples' Friendship University (Université de l'Amitié des Peuples de Russie), it is of great importance to conduct scientific research on the development of listening comprehension, speaking, reading and writing skills of future foreign language specialists, which are components of communicative communication.

The integration of our republic into the world community has made the training of highly qualified specialists with perfect and thorough command of foreign languages one of the most important tasks. Important tasks such as "training modern personnel who know several foreign languages in our country, conducting scientific work on foreign languages, and improving the methodology of language teaching"¹¹ have been set. In this regard, improving the methodology of teaching a foreign language as a communicative activity, based on an integrative approach aimed at acquiring competences, studying foreign experiences, and training specialists in various fields who are fluent in foreign languages are of great importance.

This study is based on the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PF-4947 dated February 7, 2017 "On the Strategy of Actions for the Further Development of the Republic of Uzbekistan", Resolution No. PQ-2909

¹¹O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning 2018-yil 5-martdagi Namangan viloyati To'raqo'rg'on tumani Is'hoqxon Ibrat nomidagi maktab-internatiga tashrifidagi nutqi. Elektron resurs:<http://www.uza.uz/oz/...prezidentimiz-is-o-khon-t-ra-ibrat-mazhm>. Murojaat sanasi: 26.11.2018 y.

dated April 20, 2017 “On Measures for the Further Development of the Higher Education System”, Resolution No. VMQ-610 dated August 11, 2017 “On Measures to Further Improve the Quality of Teaching Foreign Languages in Educational Institutions”, Resolution No. PQ-3775 dated June 5, 2018 “On Additional Measures to Improve the Quality of Education in Higher Educational Institutions and Ensure Their Active Participation in the Comprehensive Reforms Being Implemented in the Country”, Resolution No. PQ-3775 dated November 16, 2020. This dissertation research serves to a certain extent in the implementation of the tasks set out in the Decrees No. PF-6108 “On measures to develop the spheres of education and science in the new period of development of Uzbekistan”, Resolutions No. PQ-5117 dated May 19, 2021 “On measures to bring the popularization of foreign language learning in the Republic of Uzbekistan to a qualitatively new level”, Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PF-60 dated January 28, 2022 “On the Development Strategy of New Uzbekistan for 2022-2026” and other regulatory and legal documents related to this activity.

Compliance of the research with the priority areas of the development of science and technology in the republic. This research was carried out in accordance with the priority direction of the development of science and technology of the republic I. “Social, legal, economic, cultural, spiritual and educational development of an information society and a democratic state, formation of a system of innovative ideas and ways of their implementation”.

